HADISLARDA NUTQ ODOBI HAQIDA

Satimova Ra`noxon Habibullayevna
AndDTI akademik litseyi
ona tili va adabiyoti fani o`qituvchisi

Annotatsiya: *Nutq odobi insonning umumiy axloqini belgilovchi asosiy mezondir. O'rta Osiyoda axloqiy tarbiya o'z an`analariga egadir. Axloq haqidagi ibratli fikrlar qadimgi turkiy yodnomalarda, buyuk allomalarning asarlarida va boshqa yozma yodgorliklarda bizgacha etib kelgan.*

Kalit so'zlar : *Farobiy, Ibn Sino, Nutq odobi, hadis , "Gulzor" va "Miftoxul adl", "Kitobo'l axloq".*

Axloq fan sifatida o'rta asrlarda yuzaga keldi. Bu fanning o'z olimlari paydo bo'ldi, nazariyasi yaratildi. Farobiy, Ibn Sino, Nasriddin Tusiy, Jaloliddin Davoniy, Sabzovoriy, G'iyosiddin Mansur kabilar axloq fanining mavzui, vazifalari, maqsadining nazariy va amaliy jihatlarini asoslab berishga hissa qo'shdilar. Afsuski, ko'p yillar davomida bu merosni o'rganish, ommalashtirishga imkon bo'lmadi, juda ko'p olimlarimiz hamon xalq uchun noma`lum bo'lib kelmoqda. Aslida esa deyarli hamma davrlarda bu fan taraqqiy etib bordi, yangi-yangi asarlar paydo bo'ldi; axloq va ta`lim-tarbiya sohasida ilmiy tadqiqot olib borgan juda ko'p olimlar yetishib chiqdi. Qator mutaxassislarning asarlari asossiz ravishda o'rganilmay kelindi. Ibn Arabiy (XIII asr) "Taqzibo'l axloq" (Xulqiy tarbiya haqida) va "Kitobo'l axloq" (Axloq kitobi), Abu Bakr Qalandarning (XIII asr) "Qalandarnoma", Husayn Voiz Koshifiy (XV asr) "Axloqi Muxsiniy", Poshshoxo'ja

Abduvahobxo'janing (XVI asr) "Gulzor" va "Miftoxul adl" ("Adolat kalimi"), Abu Tohir Xo'janing (XIX asr) "Axloqi Muhammadiy", Abdurahmon Sharafning (XIX asr) "Ilmi axloq", Salohiddinning (XIX asr) "Mahosini axloq" (Axloq fazilatlari), Abdurahmon Sayyohning (XIX – XX asr) "Me`yoriy axloq", ("Axloq me`yori") kitoblari ana shunday asarlardir.Ma`lum bo'ladiki, O'rta Osiyo, xalqlari, jumladan o'zbek xalqi ham boy axloqiy merosga egadir. Ma`lum sabablarga ko'ra, o'zbek xalqi avlod – ajdodlariga axloqiy tarbiya berib kelgan bu boy merosdan bahramand bo'la olmadi.

Kishining odobi, eng avvalo, uning nutqida ko'rinadi. Nutq odobi nima? Nutq odobi deganda aytilishi zarur bo'lgan xabarlarni, tinglovchini hurmat qilgan holda, uning ko'ngliga mos, adabiy normadagi ifodalar bilan etkazish tushuniladi. Har qanday xunuk xabarni ham tinglovchiga beozor etkazish mumkin. Buning uchun so'zlovchi tilni, adabiy til normalarini mukammal bilishi lozim. Muloyim, yoqimli, odobli so'zlash ham o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Unga yoshlikdan ongli mashqlar qilish, tilning lug'at boyligini egallash, bu borada nutqni ibratli kishilarga taqlid qilish, ulardan o'rganish orqali erishiladi. O'quvchi uchun eng yaxshi namuna o'qituvchi nutqidir. Buni o'qituvchi har doim o'zida his etib turishi, o'z nutqida hech vaqt odob-axloq, nutq madaniyati normalaridan chiqmasligi lozim. Nutqiy muomala salomlashishdan boshlanadi. Salomlashishdagi xushmuomalalik undan keyingi yaxshi suhbatga debocha bo'ladi, tinglovchiga yaxshi kayfiyat paydo qiladi. Agar salomlashish quruq, iltifotsiz bo'lsa, keyingi suhbatga salbiy ta`sir etishi mumkin. Ko'p asrlik odatiy an`analarimizga ko'ra, "Assalomu alaykum"ning javobi "Vaalaykum assalom"dan iborat. Keyingi davrlarda yoshlar orasida salom ham, alik ham tumtoqlashib ketdi, ya`ni salom berish uchun ham, uning

javobi uchun ham birgina “Salom” ishlatiladigan bo’ldi. Bu tarixiy an`analarimizdan chetlashishdir.

Xalq tilida salomlashish uchun ham, xayrlashish uchun ham alohida vositalar mavjud. O’qituvchi ularni o’z o’rnida ishlatishda hamma vaqt o’z shogirdlari uchun o’rnakdir. Madaniyatli kishi o’z aybini bo’yniga ola bilishi, aybi uchun kechirim so’rashni ham bilishi lozim. O’z aybi uchun kechirim so’rash o’z guro’rini yerga urish emas, balki odoblilik, xushmuomalalik alomatidir. “Kechirasiz mendan o’tibdi” yoki “avf eting, bundan so’ng takrorlamaslikka harakat qilaman” deyish bilan kishi o’zining odobliligini namoyish etadi, holos.

Yetuk kishiga xos fazilatlardan yana biri xayrlashuv odobidir. Tilimizda xayrlashganda ishlatiladigan “sog’ bo’ling”, “xayr, ko’rishguncha”, “xayr, omonlikda kurishaylik” kabi ta`sirchan iboralar mavjud. O’qituvchi sinfdan chiqayotganda “xayr, sog’ bo’linglar”, “xayr, yaxshi qolinglar” iboralarini ishlatsa, o’rinli bo’ladi. Bolaga yaxshilik qilgan, aytilgan yumushni, iltimosni bajargan kishilarga minnatdorchilik ifodalaydigan chiroyli ifodalar bor. Ularni kundalik muomalaga kiritish, o’z o’rnida ishlatish kishi xulqini naqadar bezaydi. O’qituvchi topshiriqni yaxshi bajargan o’quvchilarni “ofarin”, “barakalla”, “rahmat”, “otangizga rahmat”, “minnatdorman” kabi so’zlar bilan rag’batlantirishi mumkin.

O’qituvchining nutqi hamma vaqt o’zbek adabiy tili normalariga sodiq qoladi, adabiy tilning go’zal va ta`sirchanligini o’zida saqlaydi. Adabiy til ma`lum qo’shimchalar, grammatik kategoriyalarning qo’llanishdagi bir xilligi, barkarorligi bilan umumo’zbek xarakterida bo’ladi va shevalardan ustun turadi. Uning ustunligini bir tomondan adabiy normalar belgilaydi.

Hadislarda aytilishicha, “Qur`oni karim”da ehsonga loyiq kishilarning birinchi navbatda ota-ona haqi belgilab beriladi. “Al-Isro” surasining 23-24 oyatlarida ota-onaga yaxshilik – Alloh taologa ibodat qilishdan keyin ikkinchi vazifa sifatida ta`kidlanadi. Ota-ona qanday inson bo’lishidan qat`iy nazar, farzand ularga nisbatan hurmat bilan muomalada bo’lishi kerak. Ota–ona farzandni dunyoga keltirish bilan birga, farzandga ta`lim-tarbiya ham berganligini unutmay, haqqiga doimo duo qilib turishi ta`kidlanadi.

“Qur`on”ning ma`lum oyatlari shirinsuxanlikka bag’ishlanadi. Shirinso’zlik insonning muomala madaniyatiga ega ekanligini ko’rsatadi, obrusini orttiradi, hurmatga sazovor qiladi. Shunga ko’ra, “Qur`on”da har bir inson shirinso’z bo’lishi ta`kidlanadi. Boshqa bir oyatda Alloh kishilarni so’zlashganda past ovoz bilan so’zlashga undaydi: “Kishilarga chiroyli so’zlar so’zlangiz” (“Baqara” surasi, 53-oyat) so’zlashganda ochiq yuzli bo’lish, qo’pollik qilmaslik, xushmuomala bo’lish odoblari hayotda tinchlik va baxt saodatga erishishda yorug’ yul sifatida talqin etiladi: “Alloh tomonidan bo’lgan bir marhamat sababli ularga (sahobalarimizga) yumshoq so’zli bo’ldingiz. Agar qo’pol, qattiqqo’l bo’lganingizda edi, albatta atrofingizdan tarqalib ketgan bo’lar edilar”. (“Ol - imron” surasi, 159-oyat).

Haqiqatdan ham so’zlashish madaniyati har bir inson uchun eng zarur bo’lgan, unga baxt-saodat, jamiyatga esa ravnaq keltiradigan muhim fazilatdir. “Qur`on”da insonni axloqiy kamolga etkazishda yaxshi kishilar bilan hamsuxbat bo’lish ham katta ahamiyatga ega, deb ko’rsatiladi. Yaxshi kishilar bilan ham, yomon kishilar bilan ham muomala-muloqotda bo’lganda, albatta uning o’ziga xos odob qoidalari bor. Islomda ruxsat so’rash va salomlashish odoblariga ham e`tibor beriladi. “Nur” surasining 27-28 oyatlarida bu borada

aniq tavsiyalar berilganki, bu tavsiyalarga rioya qilish insonning ma`naviy kamolotidan dalolat beradi.

Islomda salomga alik olish xususida “Niso” surasining 86-oyatida “Qachon sizlarga biron ibora bilan salom berilsa, sizlar undan chiroyliroq qilib alik olinglar yoki (hech bo’lmasa) o’sha iborani qaytaringlar”, -deyiladi.

Insonning eng go’zal qilib turadigan narsasi, uning shirinso’zligi va xushmuomalaligidir.

“Qur`on”da haqiqiy inson bir-birini kamsitmasligi, boshqalarni xurmat qilishi, shu bilan kishilar o’rtasida totuvlikni mustahkamlashi mumkin ekanligi kabi g’oyalar ham mavjud. Kishilarning bir-birini hurmat qilishi, o’zaro do’stlik aloqalarini mustahkamlashi, kelishmovchiliklarning oldini olishda, holis komil insonga xos bo’lmagan pastkashliklardan saqlanishda ular katta ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR:

1.Karimov. I.A.Ma’naviy yuksalish yo’lida T.”O’zbekiston”1996.

2.Imom Buxoriy. Al jome’ as-sahih. T., 1991

3. Mahmudov N. Ma’rifat manzillari T., “Ma’naviyat” 1999.